

CHET TILLARINI O‘RGANISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Hamroyeva Farida Faxriddinovna

Samarqand davlat chet tillar instituti

PhD, v.b., dotsenti

Qahramonova Marjona Qahramon qizi

SamDChTI, 2514-guruh talabasi

***Annotatsiya.** O‘zbekiston jahon bilan bo‘ylashayotgan davlat. Sohalarda olib borilayotgan islohotlar buning isboti. Ayniqsa, chet tillarini o‘qitish borasida yurtimizda salmoqli ishlar qilinmoqda. Chet tillarini o‘rganishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa samaradorlikni yanada oshiradi. Maqolada mana shu jihatlariga e‘tibor qaratilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Raqamli texnologiya, platforma, sun‘iy intellekt, ta‘lim jarayoni, mobil ilovalar, viziullashuv, jahon hamjamiyati, tarjimon dasturlar.*

KIRISH QISM.

Ta‘kidlash kerakki, so‘nggi yillarda yurtimizda islohotlar ko‘lami sezilarli ravishda jadallashdi. Bu islohotlar har sohada ko‘zga tashlanmoqda. Ayniqsa, tashqi siyosat, tashqi iqtisodiyot, ta‘lim bilan bog‘liq islohotlar ko‘lami yanada kengaymoqda. Chet tillarini o‘rganish borasidagi dadil qadamlar 2016-yildan keyingi muhim jarayonlardan biridir, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Qolaversa, zamonaviy axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta‘lim tizimining barcha sohalariga, jumladan, chet tillarini o‘qitishga ham kuchli ta‘sir ko‘rsatdi. Mamlakatimizda ham bu borada samarali ishlar olib borilmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 19-maydagi PQ– 5117 – son qarori qabul qilingan. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chet tillarini o‘qitish tizimini takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida” 2021 – yil 6-maydagi kengaytirilgan tarzda otkazilgan 23- son yig‘ilishida chet tillarini o‘rganish uchun yetarli shart-sharoitlar yaratish va chet tillarini o‘rganishni ommalashtirish xususida vazifalar belgilab berilgan.

Raqamli texnologiyalarning ta‘lim jarayoniga kirib kelishi chet tilini o‘rganish va o‘qitish metodikasini tubdan o‘zgartirdi. Endilikda an‘anaviy o‘qitish usullari raqamli vositalar yordamida yanada interaktiv va samarali shaklga keltirilmoqda. Raqamli texnologiyalar ta‘limni osonlashtiradi. O‘quvchilar har qanday vaqtda va har qanday joyda bilim olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shuningdek, shaxsiylashtiradi, ya‘ni har bir o‘quvchining o‘z o‘rganish sur‘ati va uslubiga mos ravishda bilim olish imkoniyati yaratiladi. Bu motivatsiya oshirish xususiyatiga ham ega. Interaktiv materiallar va o‘yin shaklidagi darslar o‘quvchilarning o‘rganishga qiziqishini kuchaytiradi. Global imkoniyatlar yaratishi esa raqamli texnologiyalarni ta‘limdagi yana bir muhim jihatidir. Xalqaro ta‘lim platformalariga kirish va chet ellik o‘quvchilar va o‘qituvchilar bilan muloqot qilish imkoniyati mavjud bo‘ladi.

Bugungi kunda chet tilini o‘rgatishda onlayn platformalar raqamli vositalar keng qo‘llanilmoqda. Duolingo, Memrise, Rosetta Stone kabi dasturlar chet tilini o‘rganishni interaktiv va oson qiladi. Video va audio materiallardan esa YouTube darslari, podkastlar, audio kitoblar orqali eshitish va tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Cambridge Dictionary, WordReference, DeepL kabi raqamli lug‘atlar va tarjima ilovalari so‘z boyligini oshirish va tarjima qilishda yordam beradi.

XX asning oxiri va XXI asrning birinchi o‘n yilligida ommaviy kompyuter dasturlari va veb-saytlar avtomatik, mashina tarjima tizimlari paydo bo‘ldi va kundalik hayotda "tarjimon dasturlari" deb atala boshlandi va bu nom ko‘pincha “tarjimon” ko‘rinishigacha qisqartiriladi. Ushbu maqolada inson-tarjimonlar faoliyatining

jihatlarini muhokama qilinmoqda.

Zamonaviy davrda bunday mutaxassis, odatda, maxsus oliy ma'lumotga ega bo'lish kerak; bu tarjima yoki keng filologik yo'nalishdagi oliy ma'lumot bo'lishi mumkin va sohaga oid, iqtisodiy, yuridik, texnik, tibbiy va boshqalar tarjimalarni amalga oshirish uchun shaxs faoliyatining tegishli sohasida oliy ma'lumotga ega iqtisodchilar, huquqshunolar, muhandislar, shifokorlar, mashinistlar, ular o'zining oliy ma'lumoti va kasbiy aloqa sferasida tarjimonlarni tayyorlash kurslari doirasida olinishi mumkin bo'lgan yetarlicha lingvistik va tarjimonlik tayyorligiga ega bo'lgan holatda jalb qilinadi.

Turli xil ilovalardan foydalanib ko'plab, jumladan, ingliz, arab, ispan, fransuz, italyan, nemis, irland, golland, rus, xitoy va boshqa tillarni o'rganishingiz mumkin.

Duolingo ilovasi- ilova orqali til o'rganishni boshlash jarayoni muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirilishi mumkin. Shunchaki ilovani ochib, o'rganmoqchi bo'lgan tilingizni tanlaysiz va siz uchun alohida dars boshlanadi. Akkaunt o'chib o'tirishingiz shart emas, lekin akkaunt yaratsangiz, ko'plab imkoniyatlarga ega bo'lasiz. Misol uchun, o'rganayotgan paytingizda, jarayonini saqlash va kuzatib borishingiz mumkin bo'ladi. Barcha darajadagi o'rganuvchilar: beginner, intermediate, advanced va boshqalar foydalanish imkoniyatlariga ega. Mavzular turli xil mavzularga moslab chiqilgan. O'qish, yozish, tinglab tushunish, so'zlashish va shu kabilarni barchasi uchun mashqlar mavjud. Kuningizning istalgan vaqtida va istalgan muddatda foydalana olasiz. Har bir bajarilgan mashqdan so'ng harakatlanuvchi odamcha shaklidagi animatsiyalar foydalanuvchiga o'ziga xos animatsiya beradi. Misol tariqasida, agarda siz mashqlarni yaxshi, a'lo darajada bajarsangiz animatsion odamchalar harakatlanib sizga tabassum qiladi va zo'r deb ishora ko'rsatadi. O'rganish mumkin bo'lgan tillar bular: ispan, fransuz, ingliz, nemis, xitoy, yapon, koreys, italyan, portugal, golland, irland, shved, turk, norveg, ukrain, rus, polyak, hind, vietnam, venger, grek, indonez, chex. Duolingo onlayn yoki Android, iOS va Windows uchun ilovalar orqali foydalanish mumkin.

Memrise- til o'rgatuvchi yana bir bepul ilova. Bu ilova orqali til o'rganish Duoling ilovasiga qaraganda biroz murakkabdir. Ammo ilovadan foydalanish osonligi, oflayn kurslar bilan ta'minlashi sabali foydalanuvchiga ko'plab tillarni o'rgata oladi. Darslarni dastlabki yoki to'g'ridan-tog'ri yuqori bosqich bilan boshlash mumkun. Memrise'ning o'ziga xos tomoni foydalanuvchiga yangi so'z va iboralarni o'rgatish usulidadir. Dasturda, shuningdek, tarjimalar orqali o'qitish usuli ham mavjud. O'rganish mumkin bo'lgan tillar bular: ingliz, fransuz, ispan, golland, portugal, norveg, yapon, koreys, island, arab, turk, nemis, shved, polyak, italyan, xitoy, rus, mog'ul, Memrise'dan Android, iOS uchun ilovalaridan, shuningdek, veb-brauzer orqali onlayn foydalanishingiz mumkin.

FluentU- ushbu ilova orqali dunyo bo'yicha eng ko'p tarqalgan tillardagi video suhbatlarni subtitrlar bilan ko'rish imkoniyatlarga ega. Bu ilova ko'rib o'rganish qobiliyati "Audio-visual learners" kuchli o'rganuvchilar uchun o'z qulayliklariga ega. Buni afzalliklari: mavzular doirasi juda keng. Turli reklamalar ulardagi musiqalar va videolarni, suhbatlarni tinglash mumkin. Video ko'rish davomida so'zlarning subtitrlari chiqib turadi va tushunishda qandaydir muammoga duch kelsangiz, ana shu so'zni ustiga bosilsa, so'z ma'nosini osongina topib olish imkoniyatlari mavjud.

Busuu- ilovasidan foydalanish oson hamda ilova turli xil darajadagi til o'rganuvchilar uchun juda qulaydir. Foydalanuvchi shunchaki ro'yxatdan o'tib, o'rganmoqchi bo'lgan tili va darajasini tanlaydi. Ilova foydalanuvchiga gaplar ichidagi so'z va so'z birikmalarini o'rgatadi, so'ngra bosqichma-bosqich test ko'rinishida imtihondan o'tkazadi. O'rganish mumkin bo'lgan tillar: nemis, ispan, Portugal, fransuz, ingliz, italyan, rus, polyak, turk, yapon, xitoy tillaridir. Busuu bilan Anroid, iOS yoki internet vositasida tilni o'rganish mumkin. Rosetta Stone- tillarni o'rganish uchun professional darajadagi servis. Bu ilova asosan, sayohatlar davomida ko'p qo'llanadigan so'z va iboralardan ta'lim olish imkoniyatlarini ochib beradi. Shuningdek, restaran, mehmonxonalar va turli xildagi sayohatlar bilan bog'liq asosiy so'z va birikmalardan iborat so'zlashgich bor va bu sayohatga chiqqanlar uchun juda foydalidir. Agarda, foydalanuvchi istasa, rang, valyuta va xaridga oid lug'atlarni sotib olish imkoniyatiga ega. Bu ilova orqali o'rganish mumkin bo'lgan tillar ro'yhatiga; ispan, ingliz, fransuz, yapon, italyan, nemis, xitoy, portugal, rus, polyak, arab, fors, koreys, golland, yunon, hind, irland va boshqalar jumlasidan.

Ko'pgina tillarni o'rgatuvchi ilovalar foydalanuvchiga mashqlar bajarish orqali tilni o'rgatadi. Google Tarjimon esa yozish va kiritilgan matnni aynan o'sha tilde ravon va to'g'ri o'qilishiga yordam beradi. Audio tugma orqali speaker matni 2 xil formatda tez yoki sekin o'qishni boshlaydi. Google Tarjimonda, shuningdek, so'z va jumalarni terib kiritish, qo'lda yozish va gapirish orqali tarjima qilish mumkin. Ilovadan internetga ulanmagan holda ham foydalanish imkoniyatiga ega bo'lasiz. Faqat til paketini oldindan yuklab olishni unutmang. Bundan tashqari, Google Tarjimonda har qanday matinni kamera orqali rasimga olib tarjima qilish mumkin. Bunda dastur faqat bir necha tillardan tarjima qila oladi. Google Tarjimon juda ko'plab tillarda ishlay oladi, shu jumladan o'zbek tilida ham. Ilovadan Android va iOS tizimlari orqali foydalanish mumkin. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda texnikasiz hech bir ishni udallay olish qiyin hatto, ta'lim sohalarida ham. Informatika, raqamli texnologiyalar fanlari ham chet tillarni va fanlarni o'qitish metodikasi bilan bog'landi. O'ylaymanki, endilikda axborot texnologiyalari orqali masofaviy hujjatlarni, turli kitob, jurnallarni, ta'lim doirasida ham qiyinchiliklar yuz bermaydi. Zero, ijtimoiy tarmoqlar, axborot texnologiyalari chet tillarni mukammal egallash ilm cho'qqisiga chiqish uchun manfaatli yo'llardan biri bo'lib hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalar o'qituvchilar uchun bir qator afzalliklarni yaratadi. Masalan darslarni vizuallashtirish orqali grafikalar, diagrammalar, video va animatsiyalar orqali darslarni yanada qiziqarli va tushunarli qilish mumkin. Bu o'qituvchiga murakkab mavzularni oddiy va aniq tushuntirishda yordam beradi.

O'quvchilar faoliyatini nazorat qilishda ham zamonaviy texnologiyalarning o'rni oshib bormoqda. Raqamli texnologiyalar orqali o'quvchilarning ishlari va darslardagi ishtirokini tez va aniq nazorat qilish mumkin. Bu o'qituvchiga har bir o'quvchining rivojlanishini kuzatishga yordam beradi.

Moslashuvchan dars rejalarini tuzish borasida ham texnologiyalarning qo'llab yaxshi samara bermoqda. Raqamli vositalar yordamida o'qituvchilar zamonaviy va moslashuvchan dars rejalarini tuzishlari mumkin. Bu o'qituvchilarga darslarning sifatini oshirish va o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirish imkonini beradi.

O'quvchilar uchun raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari juda keng. Raqamli vositalar orqali o'quvchilar o'z-o'zini o'rganish va mustaqil mashg'ulotlar olib borish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunday o'rganish usuli o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi.

Interaktiv mashg'ulotlar qo'llashda ham bu texnologiyalarning o'rni oshmoqda. Chet tili o'rganishda interaktiv materiallar orqali o'quvchilar bilimlarini mustahkamlashadi. O'yinlar va simulyatsiyalar o'quvchilarga real hayotiy vaziyatlarda tilni amaliy qo'llash imkoniyatini yaratadi.

Real hayotiy vaziyatlarda til ko'nikmalarini mashq qilish orqali raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilar chet tili muhitida amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar masalan, xalqaro platformalarda muloqot qilish orqali.

Mobil telefonlar va ilovalar yordamida o'qituvchilar chet tilini o'rgatish jarayonini yanada interaktiv va mobil qilishadi. Tilda muvaffaqiyatli rivojlanish uchun zarur bo'lgan resurslar va materiallarga tezkor kirish mumkin. Misol uchun, audio kitoblar, podcastlar, tilni o'rganishga oid videolar va boshqa resurslar yordamida o'qish va tinglash ko'nikmalarini oshirish mumkin.

Sun'iy intellekt (AI) va mashina o'qitish texnologiyalari chet tili o'qitish jarayonini avtomatlashtirishda katta rol o'ynaydi. AI algoritmlari til o'rganishdagi xatolarni tahlil qilish, talaffuzni to'g'rilash va o'quvchilarni individual ravishda o'qitishda yordam beradi. Shuningdek, sun'iy intellekt asosida yaratilgan chat-botlar va til o'rganish platformalari o'quvchilarga interaktiv va shaxsiylashtirilgan o'quv jarayonini taqdim etadi.

Zamonaviy texnologiyalarni qo'llashda pedagogik yondashuvlar katta ahamiyatga ega. O'qituvchilar texnologiyalardan foydalanishda an'anaviy metodlardan farqli o'laroq, interaktiv va individual yondashuvni qo'llashlari lozim. Masalan, flipped classroom (aylanma sinf) metodikasi, problem based learning (muammo asosida o'qitish) kabi metodlar texnologiyalar bilan birlashtirib, samarali o'qitish jarayonini yaratadi.

Aylanma sinf metodikasi o'qituvchilarni an'anaviy sinfda o'quv materiallarini taqdim etishdan ko'ra, o'quvchilarga mustaqil o'rganish imkoniyatini beradi. O'qituvchi darslarni onlayn platformalarda joylashtiradi, va darsni sinfda yuzaga kelgan savollarni muhokama qilish uchun vaqt ajratadi. Bu metod yordamida o'quvchilar ko'proq o'z-o'zini ta'lim olishadi.

Muammo asosida o'qitish metodikasi o'quvchilarga real hayotdagi muammolarni hal qilish orqali tilni

o‘rganish imkoniyatini beradi. Bu metod yordamida o‘quvchilar amaliy topshiriqlarni bajarish orqali tilni o‘rganadilar. Texnologiyalar yordamida, o‘quvchilar muammolarni yechishda onlayn forumlar, guruhli munozaralar va interaktiv videolarni qo‘llashadi.

Texnologiyalarni samarali qo‘llash uchun o‘qituvchilar pedagogik va psixologik yondashuvlarni hisobga olishlari lozim. O‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, o‘quv jarayonini qiziqarli qilish va mustahkamlashda texnologiyalar muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchi o‘quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olib, turli interaktiv metodlarni qo‘llashi kerak.

Chet tillarini o‘qitishda raqamli texnologiyalarning joriy etilishi o‘quv jarayonini tubdan o‘zgartirdi va uning sifatini yaxshiladi. Raqamli vositalar o‘quvchilarga yangi bilimlarni o‘rganishda ko‘plab imkoniyatlar taqdim etadi va o‘qituvchilarga samarali darslar tashkil qilish imkonini beradi. Kelajakda chet tillarini o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish yanada kengayib, yangi imkoniyatlar ochib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni organishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqishga olib chiqish chora -tadbirlari tog‘risida” 2021 – yil 19-maydagi PQ – 5117 – son qarori.
2. Toshboltaev, F. U. (2021). The necessity to ensure integration of pedagogical and information technologies in the preparation of future teachers. *European Journal of Research Development and Sustainability*, 2(6), 103-106.
3. Fahriddin, T. (2022). Content of ensuring the integration of pedagogical and information technologies in higher pedagogical education. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 15, 193-197.
4. Tashboltaev, F.O. (2022). Features of improving the methodical training system of future teachers. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 15, 113-115.
5. Toshboltayev, F. O‘. (2022). Bo‘lajak o‘qituvchilarda metodik tayyorgarlikni rivojlantirishning ijtimoiypedagogik. *Science and innovation*, 1(B3), 615-622.
6. M. A. Ahmadova. (2019). *Zamonaviy ta’lim texnologiyalari: pedagogik asoslar va usullar*. Toshkent: Ma’naviyat.
7. G. D. Daminov. (2020). *Chet tili o‘qitishda innovatsion texnologiyalar*. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti nashriyoti.
9. I. M. Kamilov. (2018). *Onlayn ta’lim va interaktiv metodlar*. Tashkent: Navoiy nashriyot
10. R. L. Semenov. (2017). *Sun’iy intellekt va ta’lim*. Moskvada: Mashina ta’limi.
11. Khasanova Khalida Fattayevna.”Interaction of a Foreign language with other disciplines” .E-Conference.Globe 2021.
12. Xasanova Xalida Fattayevna.”Biologiyaga doir inglizcha atamalarni o‘rganishning ahamiyati”. *Evrasiyskiy jurnal akademicheskix issledivaniy*.2.4 (2022) 582-584
13. Bekmuratova U. B. “Ingliz tilini o‘qishda inovatsion texnologiyalardan foydalanish” mavzusida referat. Toshkent- 2012.
14. Djumaqulov A. A. The difference modular teaching technology and traditional teaching. 2020.
15. Jalilov J. Chet tili o‘qitish metodikasi. Toshkent. 2012.
16. Otaboyeva M. P. Chet tilini o‘qishda zamonaviy inovatsiyon texnologiyalardan foydalanish va uning samaradorligi. 2017.
17. O‘. Hoshimov, I. Yoqubov. *Ingliz tilini o‘qitish metodikasi*. Toshkent. Sharq nashriyoti. 2003.
18. Gregor Naprokazip. *Istoriya sovetского perevodovedeniya*. Radio Svoboda. 2021.